

MILLIY TILIMIZ



Abstract:

Key words:

Author of the article:

Xolnazarova Gulnora Fayzullayevna

Workspace (Education subject)

Muzrabot tumanidagi 14-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tilimiz benihoya boy, uning so'z zahirasi bir necha yuz minglar bilan o'lchanadi bu zaxira, birliklari orasidagi birgina ma'nodoshlikning o'zi har bir tushunchaning butun ikir chikirigacha, hattoki, so'zlovchining bu tushunchaga bo'lgan yaxshi-yomon munosabatigacha ifodalana olishiga yo'l ochadi.

Tilimizning tovush qurilishi juda ham rangin, har qanday ma'no mazmunni ohang og'ushida tasvirlash, ta'kidlash va tasdiqlashday betakror imkonga ega.

Tilimizning grammatikasi shunchalik mantiqiy teran, tarang va takomil-u sayqal topganki, ayrim g'arb olimlari (masalan M. Myuller) ta'biri bilan aytganda, "xuddi bir guruh mutaxassislar birgalashib ishlab chiqqanday". Undagi morfologik va sintaktik birliklar real olamdagi xilma- xil mazmun va munosabatlarni turli nuqtai nazarlardan ko'rsata oladi.

Tilimizda tamoman to'g'ri ifoda tiniq tasvir va badiiy ta'sir imkoniyatlarining chek-u chegarasi yo'q.

Chunki bugun mustaqillik bois yanada barq urib emin erkin va muntazam rivojlanib borayotgan O'zbek tili yer yuzidagi eng qadimiy tillardan. O'zbek tilining tarixiy ildizlari miloddan avvallarga borib taqaladi. Bu tilning yozma an'analari ham behad ko'hna. Aytish joizki, har qanday tilning boylik darajasi baholanganda, asosiy, o'lchov, avvalo, unda yozma an'nalarning qachondan buyon mavjud ekanligi bo'lishi dunyo tilshunosligiga e'tirof etilgan.

O'zbek tilining benazir qudrati va sarhadsiz badiiy imkoniyatlari o'zbek xalq og'zaki ijodining qiyossiz namunalarida o'zining tabiiy in'ikosini topgan. Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning bu bitmas-tuganmas imkoniyatlarni baralla namoyish etgan o'lmas asarlari hamon har kimni hayrat barmog'ini tishlashga majbur qilib kelmoqda. Bugun o'zbekning o'lmas so'zi bo'lmish "Alpomish" –u "Xamsa" larimiz jahon badiiyati xazinasining to'rida qo'r to'kib turibdi.

Tilimizning sofligi haqida qayg'urish shu millatga mansublikdan shu muqaddas timsolga daxldorlikdan iftixor qiladigan har bir kishining burchi. Nafaqat mutaxassis balki kasb-u koridan qat'i nazar, yurtning har bir fidoyi farzandi tilga e'tiborni esdan chiqarmasligi zarur. Ona tili bu millatning ruhidir.

O'zbek tili qadim tarixga va o'zining betakror yozma an'analari ega bo'lgan nufuzli tillardan biridir. O'zbek tilida so'zlashuvchilarning soni yer yuzida 35 milliondan ortiq kishini tashkil etadi. Shundan 25 milliondan ortig'i O'zbekistonda istiqomat qiladi.

E'tibor bersangiz, o'zbek tilida so'zlashuvchi kishilarning nutqida hududiy farqlar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa hozirgi kunda yoshlarimizning nutqida so'zlarning buzilish holati ko'p uchramoqda. Adabiy tilda so'zlashishga nima yetsin.

Ayrim so'z va shakllari eskirib, nutqdan umuman chiqib ketishi ham mumkin. Shuningdek, so'zlashuv nutqida ham ba'zi hududiy o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Ammo bunday va bu kabi unsurlar yaxlit o'zbek, milliy tilining tarkibida, uning doirasida bo'ladi.

O'zbek milliy tili esa hududiy, iqtisodiy va ruhiy – ma'naviy mushtaraklik omili, azaliy milliy o'zlik va qadriyatlarining posboni sifatida o'zbek millati shakllanishining asosini tashkil etadi. O'zbek milliy tili, ayniqsa, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari o'zining tabiiy ifodasini topgan.

Milliy tilimiz hamisha rivojlanib, boyib, takomillashib boradi, milliy tilning eng rivojlangan, takomillashgan va me'yorlashgan oliy shakli adabiy tildir. Adabiy tilimiz millatni yanada birlashtiradigan, jipslashtiradigan muhimi, uning ma'naviy- ma'rifiy kamoloti hamda nufuzining barqarorligiga xizmat qiladigan qudratli vosita vazifasini bajaradi.

Adabiy tilimizning shakllanishi g'oyat uzoq va murakkab tarixiy- tadrijiy jarayon bo'lib, u xalq adabiy badiiy, aqliy –ilmiy tafakkuri mahsulidir. O'zbek adabiy tilimizning asoslari benazir va buyuk mutafakkur bobomiz Alisher Navoiy tomonidan qo'yilgan. O'zbek adabiy tili so'z boyligining ko'payib borishda va me'yorlarining barqarorlashuvida mahoratli so'z ustalarining xizmatlari beqiyos.

Til millatimizning bosh belgisi sanaladi. Til bor millat bor.

Istiqlol unut bo'lgan davlatchiligimizni tikladi, yo'q bo'lishga mahkum qilingan tilimizni, millatimizni asradi va aziz qildi. Endi uning biz yo'qotib ulgurgan boyligini tiklash, turlicha "izm" tamg'alarini qo'yib iste'moldan chiqarilgan so'zlarni o'rniga qaytarish, buning uchun mumtoz adabiyotimizni chuqur o'rganish hozirgi avlod zimmasidagi sharafli burchdir.

Ammo, shuni unutmangki, aniq, ta'sirli va tugal nutq tuzish uchun bularning o'zi yetarli emas. Masalan, grammatika to'g'ri gapirish va yozishni o'rgatadi, lekin har qanday to'g'ri nutq aniq ta'sirli va tugal bo'lavermaydi.

Turli nutqiy vaziyatlar, ijtimoiy aloqa sharoitlar so'zlovchining ko'zlagan asosiy maqsadiga muvofiq farqli nutq ko'rinishlari yuzaga keladi, ular nutqiy uslublar sifatida o'ziga xosliklarga ega bo'ladi.

Milliy tilimizning rang-barang zaxirasidan tegishli til birliklarini tanlash va ularni uslub talablariga mos ravishda qo'llashning ham qat'iy qoidalari mavjud. Ularni ya'ni milliy tilimiz qonuniyatlarini yetarli darajada bilmasdan turib, nutqning aniqligi, ta'sirchanligi va rasoligiga erishib bo'lmaydi. Milliy tilimiz yo'lida sabot va g'ayrat tilayman.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.N.M.Mahmudov,A.Sh.Sobirov,Y R.Odilov ,G Sh.Ziyodullayeva va boshqalar - Toshkent:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"Davlat ilmiy nashriyot ,2017.-112 bet
- 2.www.ziyonet.uz
- 3.Arxiv.uz

TEXNIKUMLARDA AMALIYOTLARNI TASHKILLASHTIRISH METODIKASI



Abstract:

Ushbu ilmiy maqolani mazmuni shundan iboratki, Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi, O'quv-ishlab chiqarish majmuasida kasbiy ta'lim berishning vazifalari, Respublikamizda jadal rivojlanib borayotgan ta'lim tizimi, Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish bo'yicha barcha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Key words:

Shaxs, Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat, xizmat ko'rsatish, Shaxs va davlat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Pedagog-olimlar.

Author of the article:

Workspace (Education subject)

Oblayeva Sayyora Sa'din qizi

Ilmiy izlanuvchi

KIRISH

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi.

Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi. O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng awalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidart o'tish kafolatlanadi.

Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi». Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fiiqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi. Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qiliishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim.

Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning bar tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi.